

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHINING TURLI POZITSİYALARDA FAOLIYAT OLIB BORISHI

Nazarova Dildora Asatovna

*Oriental universiteti «Uzluksiz ta'lim pedagogikasi» kafedrası professori,
pedagogika fanlari nomzodi
e-mail:nazarova@gmail.com*

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi faqat bilim berish jarayoni emas, balki insonni ijtimoiy hayotga to'liq tayyorlash, shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonda inklyuziv ta'limning o'rne beqiyosdir. Inklyuziv ta'lim har bir bolaga — uning jismoniy, psixologik, ijtimoiy yoki kognitiv xususiyatlaridan qat'i nazar — teng imkoniyatli ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan tizim bo'lib, zamonaviy pedagogik siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, “2021–2025 yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi”, “Aloxida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–4860-son qaror hamda “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning yangi tahririda bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu hujjatlarda o'qituvchining inklyuziv ta'lim muhitidagi faoliyatini qayta ko'rib chiqish, uning kasbiy kompetensiyalarini yangicha mazmunda shakllantirish zarurligi ta'kidlangan.

Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki multifunksional shaxs sifatida namoyon bo'ladi. U bir vaqtning o'zida pedagog, psixolog, maslahatchi, koordinator, reabilitator va ijtimoiy sherik rollarini bajaradi. Bu pozitsiyalar o'rtasidagi muvozanatni saqlash, har bir o'quvchining ehtiyojini to'g'ri anglash va unga mos pedagogik strategiyani tanlash o'qituvchidan yuqori kasbiy mahorat, sabr-toqat va emotsional barqarorlikni talab etadi. Shuningdek, o'qituvchi faoliyati faqat o'quv jarayoni bilan cheklanib qolmay, balki ota-onalar, psixologlar, defektologlar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan jamoaviy pedagogik jarayonga aylanmoqda.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchi faqat bilim yetkazuvchi emas, balki mentor, fasilitator, moderator, kouch va psixolog kabi bir nechta pozitsiyalarda faoliyat olib boruvchi ko'p funksiyali mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi. Bunday sharoitda pedagogdan keng qamrovli kompetensiyalar, ya'ni psixologik sezgirlik, ijtimoiy muloqot ko'nikmalari va



ijodiy yondashuv talab etiladi. Shu bois, inklyuziv ta’lim jarayonida o’qituvchining ko’p qirrali rollari, ularning mazmuni va samarali bajarilish usullarini aniqlashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. O’z navbatida, o’qituvchining turli pozitsiyalaridagi faoliyatini tahlil qilish orqali inklyuziv muhitda samarali o’qitish modellarini ishlab chiqish, kasbiy yondoshuvlarni takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida o’qituvchining ko’p qirrali rollari va ularni rivojlantirish yo’llari quyidagilardan iborat:

O’qituvchi – bilim yetkazuvchi

O’qituvchi inklyuziv ta’limdagi eng asosiy shaxs hisoblanadi. U:

- Har bir o’quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda darslarni tashkil qiladi;

- O’quv materiallarini turli formatlarda (vizual, audio, taktil) taqdim etadi;

- O’quvchilarni baholashda differensial yondashuvdan foydalanadi.

Rivojlantirish yo’llari: Inklyuziv pedagogika bo’yicha malaka oshirish; Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish; O’quv materiallarini barcha o’quvchilar uchun moslashtirish.

Mentor – qo’llab-quvvatlovchi

Inklyuziv ta’lim sharoitida mentor sifatidagi o’qituvchi:

- O’quvchilarni motivatsiya qilish;
- Shaxsiy rivojlanish va o’quv jarayonidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam berish;

- Ota-onalar bilan ishlash orqali bolaning rivojlanishini kuzatib borish.

Rivojlantirish yo’llari: Inklyuziv ta’limda individual maslahat berish usullarini o’rganish; Ota-onalar va jamoatchilik bilan samarali muloqot qilish; O’quvchining shaxsiy maqsadlarini shakllantirishda yordam berish.

Kouch – motivatsiya va rivojlanishga yo’lboshchi

Kouch sifatida o’qituvchi:

- O’quvchilarga o’z salohiyatini ro’yobga chiqarishda yordam beradi;
- Kasbiy yo’naltirishda qo’llab-quvvatlaydi;
- O’quvchilarning mustaqillik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Rivojlantirish yo’llari: Kouching metodlarini o’rganish; O’quvchilarning salohiyatini aniqlash va rivojlantirish; Shaxsiy motivatsiya va qobiliyatlarni rivojlantirish texnikalaridan foydalanish.

Fasilitator – hamkorlik muhitini yaratuvchi

Fasilitator sifatidagi o’qituvchi:



- O‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantiradi;
- Guruhli ishlar va muhokamalarni tashkil etadi;
- Barcha o‘quvchilarni teng ishtirok ettirishga ko‘maklashadi.

Rivojlantirish yo‘llari: Interaktiv o‘qitish metodlarini o‘zlashtirish; Inklyuziv guruhlarda fasilitatsiya usullaridan foydalanish; Barcha o‘quvchilarga teng imkoniyat berishni ta‘minlash.

Moderator – ta‘lim jarayonini tartibga soluvchi

Moderator sifatida o‘qituvchi:

- Inklyuziv muhitdagi muloqotni tartibga soladi;
- O‘quvchilar o‘rtasida munosabatlarni rivojlantiradi;
- Interaktiv metodlar yordamida dars jarayonini samarali tashkil etadi.

Rivojlantirish yo‘llari: Kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish; Debat va fikr almashish jarayonlarini tashkil qilish; Inklyuziv muhitda ta‘lim jarayonini boshqarish usullarini o‘zlashtirish.

Psixologik qo‘llab-quvvatlovchi

Inklyuziv ta‘limda psixologik jihatlar katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi:

- O‘quvchilarning psixologik holatini kuzatib boradi;
- Ularga emotsional qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatadi;
- Ota-onalar bilan hamkorlikda ishlaydi.

Rivojlantirish yo‘llari: Bolalar psixologiyasini chuqur o‘rganish; Emotsional intellektni rivojlantirish; O‘quvchilarning stress va qiyinchiliklarini yengishga yordam berish.

Xulosa.

Inklyuziv ta‘lim tizimida o‘qituvchi faqat ta‘lim jarayonini tashkil etuvchi shaxs emas, balki butun pedagogik muhitning markaziy figurasidir. Uning faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir nechta pozitsiyalarda — o‘qituvchi, fasilitator, maslahatchi, koordinator, kouch va psixolog sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, zamonaviy pedagogdan faqat fan sohasi bo‘yicha bilim emas, balki psixologik bilim, muloqot madaniyati, emotsional barqarorlik va jamoaviy ish ko‘nikmalari ham talab etiladi.

Inklyuziv ta‘lim muhitida o‘qituvchining pozitsion roli o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan yondoshuvni ta‘minlaydi. Har bir bolaning individual ehtiyojlarini to‘g‘ri anglash, uning imkoniyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy muhitga moslashuviga ko‘maklashish — o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, pedagoglar o‘z faoliyatlarida turli pozitsiyalarni muvozanatli ravishda uyg‘unlashtirish, innovatsion usul va texnologiyalardan foydalanish, o‘zaro hamkorlik va multidissiplinar yondashuvni amaliyotga tatbiq etishlari zarur.



Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati, avvalo, o'qituvchining o'z kasbiy salohiyatini doimiy ravishda oshirishiga bog'liq. O'qituvchi o'z faoliyatida psixologo-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirgan holda, har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojiga mos individual ta'lim strategiyalarini qo'llay olsa, bu nafaqat ta'lim sifatini, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, inklyuziv ta'limda o'qituvchining pozitsion roli va multifunksional faoliyati zamonaviy pedagogikaning asosiy ustunlaridan biri bo'lib, u barcha bolalar uchun teng imkoniyatli va insonparvar ta'lim muhitini shakllantirishda hal qiluvchi omildir.

Takliflar

O'qituvchilarni inklyuziv pedagogika bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim fanlarini amaliyotga yo'naltirilgan shaklda o'qitish, "Inklyuziv pedagogika" bo'yicha malaka oshirish dasturlarini muntazam tashkil etish lozim.

O'qituvchining ko'ppozitsiyali faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi metodik qo'llanmalar yaratish.

O'qituvchilar uchun "mentor", "kouch", "fasilitator" va "moderator" rollarini amalga oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar, chek-listlar va keyslar jamlanmasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Inklyuziv ta'lim muhitini yaratishda jamoaviy yondashuvni kuchaytirish.

O'qituvchi, psixolog, defektolog, logoped va ota-onalar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlaydigan "multidissiplinar jamoa" modelini joriy etish tavsiya etiladi.

Inklyuziv ta'limda emotsional xavfsizlik muhitini ta'minlash.

O'qituvchilar uchun "emotsional barqarorlik" va "stressni boshqarish" bo'yicha treninglar, kouching sessiyalari tashkil etish zarur. Bu pedagogning ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi.

Psixologik yordam va maslahat xizmatlarini kuchaytirish.

Maktablar qoshida pedagog-psixologlar uchun maxsus resurs markazlar tashkil etish, ular orqali o'qituvchilar va ota-onalarga doimiy maslahat berish tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish.

Masofaviy ta'lim, multimediali kontentlar, virtual simulyasiya va AR/VR texnologiyalarini inklyuziv o'qitishda tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Inklyuziv ta'limda pedagogik faoliyatni baholash tizimini ishlab chiqish.



O'qituvchining pozitsion rollarini bajarish samaradorligini aniqlovchi indikatorlar asosida baholash tizimini joriy etish inklyuziv ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etish nafaqat tizim yangilanishi, balki o'qituvchining kasbiy ongi, pozitsion roli va faoliyatini zamon talablariga moslashtirish bilan ham bevosita bog'liq. Pedagogning ko'pqirrali faoliyati har bir bolaning imkoniyatini ro'yobga chiqarish, jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirish va insonparvar ta'lim muhitini qaror toptirishning asosiy garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qoninu. 2020.
3. «Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni.
4. «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 13-oktabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori.
6. Broderick, A., Mehta-Parekh, H., Reid, D. (2005). Differentiating Instruction for Disabled Students in Inclusive Classrooms. Theory Into Practice, 44(3), 194-202.
7. Dewsbury, B., Brame, C. (2019). Inclusive Teaching. CBE Life Sciences Education.
8. Florian, L., Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. British Educational Research Journal. 28.
9. Mo'minova L.R., Nazarova, D. A. Inklyuziv va maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati. - Toshkent. «Lesson press» 2021.



10. Nazarova, D. A. Inklyuziv ta'lim asoslari. - Toshkent. «Lesson press» 2022.

11. Nazarova, D. A. (2020). «Aspects of Orientation of Students of the Professional

Development Courses in the Direction Managers of Educational Institutions' to the

Effective Organization of Inclusive Education.» European Journal of Research and

Reflection in Educational Sciences, 8(8), 7-12.

12. Nazarova Dildora Asatovna. Issues of involving children with hearing in inclusive education.// European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No.12, December 2021, ISSN: 2660-5643/ Page 149.

